

BOBURNI KULDIRGAN HANGOMALAR

Islomjon Jo'rayev

FarDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15709026>

Annotatsiya: Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning mashhur "Boburnoma" asarida qayd etilgan hazil-mutoyiba va kinoyali voqealar yoritiladi. "Boburnoma" an'anaviy ravishda tarixiy va adabiy manba sifatida o'rganilsa-da, unda Boburning so'zamolligi, tilga bo'lgan muhabbati va Alisher Navoiy merosiga monand turkiy (eski o'zbek) tilini yuksaltirish yo'lidagi intilishlari ham namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: memuar, adabiy manba, hajviya, shoir, ruboiy, to'rtlik

Biz "Boburnoma"ni tarixiy manba, memuar asar sifatida mutolaa qilamiz. Ammo uning muallifi nafaqat ulug' hukmdor, mohir sarkarda, hassos shoir, balki hayotdan zavq olishni biladigan, qiziqarli voqea-hodisalardan miriqib kula oladigan inson, o'zi ham hozirjavob so'z ustasi ekanligiga uncha e'tibor bermaymiz. Asarni o'qir ekanmiz, fikrimiz isboti bo'lgan ko'plab misollarni uchratamiz. Quyida ulardan ayrimlariga e'tiborni qaratmoqchimiz.

Turkiy tilni xorlik burchagidan she'riyat osmoniga ko'tarish Alisher Navoiy uchun oson bo'lmagan. Eski o'zbek tilini dag'al, ijod uchun yaramaydi, deya tahqirlovchilarning aksariyati o'zi turkiy bo'laturib, fors-tojik tilida ijod qiluvchilar edi. Kamoliddin Binoiy ana shundaylar toifasidan bo'lib, bu haqda hatto Navoiy bilan yuzma-yuz tortishishdan ham toymagan. Birgina misol: Binoiy turkman hukmdori Yoqubbek huzurida bir necha vaqt bo'lib, qaytib kelgach, Navoiy undan Yoqubbekning yaxshi fazilatlaridan so'zlab berishini so'raydi. Shunda Binoiy: "Uning eng yaxshi fazilati shu ekanki, birorta ham o'zbekcha so'zni og'ziga olmas ekan", - deya javob beradi. Bobur bu haqda atroflicha ma'lumotlarga ega bo'lgan. "Boburnoma"ning bir necha o'rinlarida ana shu iqtidorli ammo kalondimog' zot haqida qaydlar uchraydi.

"Yana Binoiy edi... Alisherbekka xeyli mutaarriz ekandur.. Bir kuni shatranj majlisida Alisherbek oyog'ini uzatur. Binoiyning orqasiga tegar. Alisherbek mutoyaba bilan derkim "ajab baloyest, dar Hiriy agar poy daroz mekuni ba pushti shoir merasad" (Ajab bir balodirki, Hirotda oyog'ingni uzatsang biror shoirning ketiga tegadi). Binoiy derkim "agar jam' mekuni ham ba pushti shoir merasad" (Oyog'ingni yig'sang ham shoirning ketiga tegadi). [1,162]

Bobur Samarqand taxtiga ikkinchi bor o'tirgan kezlari, taqdir taqozosi bilan Bobur huzuriga kelib qolgan Binoiy o'zining qashshoq holga tushib qolganligi, yeyishga nonu, kiyishga kiyimiyozqligini fors-tojik tilidagi ruboiysi orqali bayon qiladi. Shunda Zahiriddin Muhammad Bobur o'ta zukkolik bilan bir vaqtlar

o‘zbek tilini kamsitgan Binoiyga tanbeh berishning o‘ziga xos yo‘lini tutadi. Ya’ni uning fors-tojik tilidagi ruboiysiga turkiy tilda quyidagi she’r bilan javob beradi.

Ishlar bori ko‘nglungdagidek bo‘lg‘usidur,

In‘omu vazifa bori buyrulg‘usidur.

Ul g‘allau muhmalki deb erding berdim,

Muhmalg‘a bo‘yu, g‘alladin uy to‘lg‘usidur.

Boburning zimdan qilgan nozik ishorasini fahmlagan Binoiy, xijolat chekib, o‘z minnatdorchiligini turkiy tilda javob ruboiysini aytish bilan bildiradi.[1,78]

Yana bir o‘rinda may ichishdan tavba qilgan kunlarini eslayotib, Binoiyning esga oladi: “Binoiyning zarofat qilg‘oni xotirg‘a keldi: bir kun Alisherbek qoshida Binoiy zarofat qilur. Alisherbek dyerkim: “Nag‘z zarofat kardi, chakmanro medodam, vale tugmaho namemond va moneast”. Binoiy derkim: Tugmaho chi moneast, bodigiho moneast”.

Shunga o‘xshash voqea Hindistonda ham bo‘lib o‘tadi. Boburning eng yaqin do‘stlaridan biri Xoja Kalon Hindiston jaziramalariga chiday olmasdan, ruxsat olib, G‘azniga ko‘chadi. Ketayotganida o‘zi yashagan uy devoriga fors-tojik tilida “Hindni yana ko‘rishni istasam yuzim qaro bo‘lsin” mazmunidagi misralarni yozib qoldiradi:

Agar ba xayru salomat guzar zi Sind kunam,

Siyoh ro‘y shavam, gar havo Hind kunam.

Bobur bu zarofatga qarshi ona tilining o‘tkir va tagma’noli xususiyatini ishga solib, quyidagi ruboiysini bitadi va Xoja Kalonga yuboradi:

Yuz shukur de, Boburki, karimu g‘affor


Berdi senga Sindu Hindu mulki bisyor.

Issiqlig‘iga gar sanga yo‘qtur toqat,

Sovuq yuzini ko‘ray desang G‘azni bor!

Bunga o‘xshash misollarni yana keltirish mumkin. Muddao shuki, Zahiriddin Muhammad Bobur turkiy tilning boy imkoniyatlarini namoyon etish, bu tilning jahon hamjamiyati tomonidan e’tirof etilishiga erishish uchun ulug‘ ustod – Alisher Navoiyning g‘oyaviy maslagidan umr bo‘yi og‘ishmadi. Shu tariqa, Navoiy dahosining so‘z san’ati maydonida paydo bo‘lishi tasodifiy emasligini, balki tarixiy qonuniyat va zarurat ekanligini amalda isbotladi.

Temuriylardan yuz o‘girib, Shayboniyxon tomoniga o‘tib ketgan Muhammad Solih aslida Bobur uchun dushman edi. Ammo qanchalik muxolifatda bo‘lmasin, Bobur uning ijodidan ham kishida tabassum uyg‘otadigan o‘rinlarni topadi: “Yana Muhammad Solih edi. Shayboniyxonning



otig'a bir turkiy masnaviy bitibtur. Ani o'qug'on kishi Muhammad Solihning she'ridan bee'tiqod bo'lur. Bir yaxshi bayti budur:

**Bo'ldi Tanbalg'a vatan Farg'ona,
Qildi Farg'onani tanbalxona.**

Andijon viloyatini Tanbalxona ham derlar, ul masnaviy (doston)da muncha bayt ma'lum emaskim, bo'lg'ay." [1,162]

Husayn Boyqaro asos solgan adabiy muhit vakillaridan bo'lgan Shayxim Suxayliy ijodining o'quvchida kulgi uyg'otadigan jihatlariga ham e'tibor qaratadi: "Yana Shayximbek edi. "Suxayliy" taxallus qilur uchun Shayxim Suxayliy derlar edi. Bir tavr (g'alati) she'r aytur edi. Qo'rqqulik alfoz va maoniy darj qilur edi. Aning abyotidin bir budir:

**Shabi g'am gird bodi oham az jo burd gardunro,
Furo' burd ajdahoi sayli ashkam rub'i maskunro.**


(Mazmuni: G'amli kechalarda ohimning quyuni osmonni o'rnidan qo'zg'atdi. Ko'z yoshimning ajdahosi yer yuzini yutib yubordi).

Mashhurdirkim, bir qatla bu baytni Mavlono Abdurrahmon Jomiy xizmatida o'qiydur. Mavlono aytibdurkim: "Mirzo, she'r aytasizmi yo odam qo'rqutasizmi?"

"Boburnoma"dan shunga o'xshash misol va namunalarni yana ko'plab keltirish mumkin. Xulosa shuki, ulug' ajdodimiz Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti suronli janglardan, mamlakat tashvishlaridagina iborat bo'lmagan. Bu ulug' siymo xushchaqchaq davralardan ham bahra olgan, kulgu va xursandchilikka sabab bo'luvchi voqea-hodisalarga ham befarq bo'lmagan.

Adabiyotlar:

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. T.: "Yulduzcha" nashriyoti. 1989
2. Zahiriddin Muhammad Bobur. Devon. T.: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti.1993
3. Qayumov A. Bobur davridagi Andijon adabiy muhiti. T.: "Mumtoz so'z" nashriyoti. 2009
4. Hayitmetov A. Navoiyxonlik suhbatlari. T.: "O'qituvchi" nashriyoti. 1993.
5. Jurayev, I.M. (2022). Social and living factors of personal crisis. European Multidisciplinary Journal Of Modern Science, Special Issue: Use of Modern Innovation on Integrated Research
6. Jurayev, I.M. (2022). Old views of family and social relations.
7. European Journal of Humanities and Educational Advancements, (Vol. 3 No. 03,pp.276-278).



8. Jurayev, I.M. (2020). Ferdowsi And Uzbek Literature: Household And Social Issues. ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal, (Vol.10, Issue 11, pp. 1345-1349).
9. Жўраев, И. (2022). Маиший муаммолар ибтидоси. "Issues Of Philological Education: Problem Issues And Their Innovative Solutions" Collection Of Materials Of The International Conference,(1), 282-284.
10. Жўраев, И., Жўраев, Ҳ. (2022). Оила қисмати ва жамият тақдири. "Issues Of Philological Education: Problem Issues And Their Innovative Solutions" Collection Of Materials Of The International Conference,(1), 163-165.
11. Juraev, I.M., Juraev, H.A. (2022). "Bygone Days" And Lessons Of The Past. Texas Journal of Philology, Culture and History, (Vol.13, pp.12-15).
12. Жўраев, И. (2022). Тангликдан тенгликкача. Science and Innovation International Scientific Journal (Vol. 1, ISSUE 8, UIF-2022: 8.2, pp. 1213-1216).
13. I.M. Jurayev. (2023). THE FORMATION OF CONCEPTS ABOUT FAMILY IN MYTHOLOGICAL IMAGINATIONS. В International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) (Выпуск 06, сс. 287–291). Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10059440>.
14. I.M. Jurayev. (2023). ALISHER NAVOI ABOUT THE DUTIES AND RESPONSIBILITIES OF PARENTS [Data set]. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10057548>

